

IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH ORQALI UNING TARMOQLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MASALALAR.

Nabikhanova Nigora Shukhratbekovna

University Of Business And Science

"Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi

Saydumarova Dilshoda Abdulla qizi

"Iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi

Nigoraxonim@gmail.com

saydumarovadilshoda@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18859543>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida sanoat sohasining taraqqiyoti, uning hududlar kesimidagi joylashuvi hamda tarkibiy tahlili ko'rib chiqilgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, o'sish dinamikasi, texnologik yangilanish jarayonlari, mahalliy lashtirish dasturlarining amalga oshirilishi, kichik biznes subyektlarining ishtiroki va hududlar o'rtasidagi farqlar tahlil etilgan. Shuningdek, pandemiya davri va undan keyingi tiklanish bosqichlari, investitsiya oqimlari hamda eksport ko'rsatkichlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari sanoat tarmog'ini zamonaviylashtirish va uning barqaror rivojlanish strategiyalarini belgilash uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sanoat tarmog'i, zamonaviylashtirish, mahalliy ishlab chiqarish, texnologik rivojlanish, kichik tadbirkorlik, hududiy tahlil, o'sish dinamikasi, eksport salohiyati, investitsiyalar.

Аннотация. В данной статье рассмотрено развитие промышленного сектора Республики Узбекистан, его территориальное распределение и структурный анализ. Проанализированы объемы производства промышленной продукции, динамика роста, процессы технологического обновления, реализация программ локализации, роль субъектов малого бизнеса, а также межрегиональные различия. Кроме того, изучены процессы восстановления в период пандемии и после неё, инвестиционные потоки и показатели экспорта. Результаты исследования создают научно-практическую основу для модернизации промышленной отрасли и определения направлений её устойчивого развития.

Ключевые слова: промышленный сектор, модернизация, локализация, технологическое обновление, малый бизнес, региональный анализ, темпы роста, экспортный потенциал, инвестиции.

Abstract. This article examines the development of the industrial sector in the Republic of Uzbekistan, its regional distribution, and structural analysis. The

study analyzes the volume of industrial production, growth dynamics, processes of technological modernization, implementation of localization programs, the role of small businesses, and interregional disparities. It also explores recovery processes during and after the pandemic, as well as investment flows and export indicators. The research findings provide a scientific and practical basis for the modernization of the industrial sector and for defining directions toward its sustainable development.

Keywords: industrial sector, modernization, localization, technological upgrading, small business, regional analysis, growth rates, export potential, investment.

2024 yilning yanvar–dekabrda respublikada 1 101 130,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, oʻsish surʼati 2024 yilning tegishli davriga nisbatan 106,8 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarish quvvatlarini texnologik jixatdan yangilash boʻyicha chora tadbirlarning amalga oshirilishi mehnat unumdorligini 4,1 foizga oshirish imkonini berdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 86,0 % ni, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 7,0 % ni, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash 6,4 % ni, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish 0,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi oʻsishining asosiy omili boʻlib ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 7,7 % ga, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashda 3,5 % ga, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 3,5 % ga, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, yigʻish va utilizatsiya qilish sanoatida fizik hajm indeksi 2,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu qatorda, boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish ishlab chiqaradigan sanoatda (2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 199,7 %), shuningdek, elektr uskunalari ishlab chiqaruvchi korxonalarda (2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,4 %) hajmi oshdi.

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan xom neft va tabiiy gaz qazib olish (2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,2 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 92,5 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot(xizmat)lari hajmi 538 919,7 mlrd. soʻmni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda,

ovchilikda va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 518 822,7 mlrd. so'mni (104,5 %), o'rmon xo'jaligida – 15 081,5 mlrd. so'mni (103,2 %), baliqchilik xo'jaligida – 5 015,5 mlrd. so'mni (103,2 %) tashkil qildi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko'payganligi (4,4 %) bilan bog'liq. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oshishi paxtaning – 25,4 % ga, polizning – 16,2 % ga, donli ekinlarning – 13,0 % ga, uzumning – 7,6 % ga, mevalarning – 6,4 % ga va tuxumning – 7,0 % ga oshishi bilan izohlanadi. Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 62,3 % - dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 29,4 % - fermer xo'jaliklari, 8,3 % - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotining o'sishiga o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sezilarli hissa qo'shgan holda 9,6 foiz ko'rsatkich bilan 2022 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 138,8 foizni tashkil etdi¹.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 144,2 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 foizni, sanoat ishlab chiqarish indeksi esa 104,6 foizni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, qayta ishlash sanoatida ishlab chiqarish hajmining 6,4 foizga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 5,2 punkt), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 12,9 foizga (o'sishga qo'shgan hissasi 1,3 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 4,9 foizga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,4 punkt) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning - 13,5 foizga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,1 punkt) o'sishi hisoblanadi.

Qayta ishlash sanoati tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan, mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor metal buyumlarni ishlab chiqarishda 39,0 foizga, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirishda - 18,1 foizga, asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarishda – 13,6

¹ www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari


² www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari

foizga, metallurgiya sanoatida – 9,2 foizga, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishda – 8,8 foizga mahsulotlar hajmi o‘shishi kuzatilmoqda.

Hududlarning sanoat salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Andijon (2023 yil yanvar-dekabrga nisbatan 125,8 foizga), Xorazm (115,5 foizga) va Namangan (107,3 foizga) viloyatlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida (109,4 foizga) va Toshkent shahrida (109,2 foiz ga) ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada oshishi ta‘minlandi.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida Toshkent shahri (umumiy hajmning 19,6 foiz ulushini), Toshkent (14,6 foiz), Andijon (9,2 foiz), Navoiy (9,1 foiz), Qashqadaryo (7,5 foiz), Farg‘ona (6,7 foiz) va Samarqand (6,4 foiz) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Shu bilan birga eng kam ulush Surxondaryo (1,5 foiz), Jizzax (1,6 foiz), Sirdaryo (2,4 foiz), Namangan va Xorazm (2,7 foiz) viloyatlariga to‘g‘ri keladi².

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish Dasturining amalga oshirilishi, respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 799 ta loyiha bo‘yicha 9,9 trln. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo‘lib, 512,4 mln. AQSh dollar miqdorida mahalliy lashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 3 018 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.



³ www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy axborot sayti ma’lumotlari

1.1-rasm. 2020-2024 yillarda hududlardagi sanoat ishlab chiqarishning o'rtacha o'zgarish sur'ati foizda³

Qishloq xo'jaligiga etkazib berilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar ham respublika bo'yicha o'rta va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mahsulotlarining oshishiga imkon berdi. 2020 yil yanvar-dekabrda nisbatan yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarish hajmlari: pluglar 64,5 martaga, traktorlar 3,4 martaga, g'alla o'rish kombaynlari 19,4 foiz ga oshirildi.

Texnologik jihozlarni kapital ta'mirlash ishlari kimyo korxonalari ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, kaliy xlorid (2020 yil yanvar-dekabrda nisbatan 108,6 foiz), ammoniy sulfat (108,6 foiz), ammoniy nitrat (111,1 foiz), boshqa azotli o'g'itlar va ularning aralashmalari (114,2 foiz), formaldegid (118,3 foiz), akril asosli bo'yoq va laklar (134,5 foiz), superfosfatlar (1,8 m.), azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (2,1 m.) o'tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish ko'rsatkichlari oshishi ta'minlandi.


Hududlarning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Andijon (2020 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 155,8 foiz ga), Xorazm (117,3 foiz ga), Surxondaryo (115,7 foiz ga), Toshkent (115,6 foiz ga), Namangan (111,9 foiz ga) viloyatlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi⁴.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 18,6 foiz ulushini), Toshkent viloyati (15,3 foiz), Andijon (11,8 foiz), Navoiy (9,9 foiz), Qashqadaryo (6,2 foiz), Farg'ona (5,6 foiz) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

³ www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari

⁴ www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari





1.3-rasm. 2024 yilda Hududlarning respublika jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (foizda)⁵

Shu bilan birga eng kam ulushi Surxondaryo (1,4 foiz), Jizzax (1,4 foiz), Sirdaryo (2,2 foiz), Namangan (2,5 foiz) va Xorazm (2,6 foiz) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Navoiy viloyatida (23343,2 ming so'm), Toshkent shahrida (17123,9 ming so'm), Toshkent (12160,0 ming so'm) va Andijon (8867,7 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (6944,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Andijon (2023 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 153,2 foiz ga), Xorazm (115,4 foiz ga), Toshkent (114,2 foiz) va Surxondaryo (113,2 foizga) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Jizzax (100,2 foiz) viloyatida o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,2 foiz ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 34,7 foiz tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 72,9 foiz), Namangan (68,5 foiz), Jizzax (64,4 foiz), Sirdaryo (52,1 foiz) va Samarqand (51,1 foiz) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy viloyatida (16,1 foiz), Toshkent (23,5 foiz),

⁵ www.mineconomy.uz- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi ma'lumotlariga asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Andijon (19,8 foiz), Qashqadaryo (21,4 foiz) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (18,7 foiz) kuzatildi.

1.1-jadval

2024 yilda hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, (foizda)⁶

	Yirik korxonalar	Kichik biznes
O'zbekiston Respublikasi	65,3	34,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	81,3	18,7
Andijon viloyati	80,2	19,8
Buxoro viloyati	58,9	41,1
Jizzax viloyati	36,6	64,4
Qashqadaryo viloyati	78,6	21,4
Navoiy viloyati	83,9	16,1
Namangan viloyati	31,5	68,5
Samarqand viloyati	48,9	51,1
Surxondaryo viloyati	52,9	47,1
Sirdaryo viloyati	47,9	52,1
Toshkent viloyati	76,5	23,5
Farg'ona viloyati	64,2	35,8
Xorazm viloyati	68,3	31,7
Toshkent shahri	27,1	72,9

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 714 ta loyiha bo'yicha 15,0 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 457,8 mln. AQSh dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 1092 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

2024 yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan loyihalar soni kamayishiga qaramay, mahalliyashtirilgan mahsulotlar hajmi 1,5 martaga, shu bilan birga ularning eksporti va yaratilgan ish o'rinlarini 2023 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan kamayganligini kuzatish mumkin.

⁶ www.mineconomy.uz- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduraxmonov Q.X. va boshq. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. //T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2004, 302 b.
2. Huang, M. et al. (2019) 'Quality risk in logistics outsourcing: A fourth party logistics perspective', European Journal of Operational Research. Elsevier B.V., 276(3), pp. 855–879. doi: 10.1016/j.ejor.2019.01.049.
3. Xalilov O.X. (2021) Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari (dissertatsiya).
4. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari
5. www.mineconomy.uz- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

